



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar vaqulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishva tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobji o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha)


2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlikda



Xususiy korxona
birlikda




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatmas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat-aksiyadorlik jamiyatining hisoblanadi; -aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatni ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 3 051 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 2032 ta, xususiy korxonalar - 330 ta, oilaviy korxonalar - 489 ta, muassasalar - 55 ta va boshqalar - 145 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi (2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra)




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- oktabr holati ga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2683 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida – 119,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 90,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 115,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 154,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 117,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 253 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o‘tgan yilga nisbatan 100,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 114,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 112,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 31,1 %) o’sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

2020- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 5042 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 123,8 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan – 126,6 % ga (jami savdodagi ulushi 69,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan – 113,8 % ga (jami savdodagi ulushi 22,4 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash o‘tgan yilga nisbatan – 130,7 % ga (jami savdodagi ulushi 8,2 %) o’sishidir.



Oilaviy korxonalar soni (2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 1 537 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 546 taga yoki 155,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 461 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 498 taga yoki 151,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 489 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172 taga yoki 154,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 12 331 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 056 taga yoki 120,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 828 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 810 taga yoki 118,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 032 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 161 taga yoki 92,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 167 tani tashkil etib, ulardan 164 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 22 taga yoki 115,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarsoni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra,birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	65	76	109	143	164
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11	14	31	35	41
Sanoat	41	45	54	69	83
Qurilish	3	3	3	5	6
Savdo	6	9	15	21	20
Tashish va saqlash			1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	2	1	3	4
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	3	3
Boshqa turlar	1	2	2	5	6

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	164	94	70
tumanlar:			
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'irot	7	5	2
Qanliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	28	21	7
Nukus	10	7	3
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	5	3	2
Nukus sh	38	20	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 38 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,2%), Mo'ynoq 28 ta (17,1 %), Taxiatosh va Qorao'zak tumanlarida 11 ta dan 6,7 %) hamda Beruniy va Nukus tumanlarida 10 ta dan (6,1 %) tashkil etadi.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlangan da ularning ulushi Nukus shahri (29,1 %), To'rtko'l (10,4%), Beruniy (8,3 %), Amudaryo (7,2 %), Ellikqa'la (6,2 %), Qo'ng'rot (5,4 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,8 %), Taxiatosh (3,3 %), Qorao'zak (3,1 %), Kegeyli (2,7 %), Qanliko'l (2,6 %), Mo'ynoq (2,5 %), Shumanay (2,6 %), Taxtako'pir (2,1 %) Bo'zatov (1,1 %) tumanlari hissalarini ga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni (2020-yil yanvar- sentabr oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (22,0 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (7,3 %), Ellikqa'la (6,6 %), Amudaryo (6,0 %), Xo'jayli (5,8 %), Q'ong'rot va Nukus (5,5 %)dan, Taxiatosh (4,2 %), Mo'ynoq (3,8 %), Taxtako'pir (3,7 %), Chimboy (3,6 %), Bo'zatov (3,5 %), Shumanay (3,4 %), Qanliko'l (3,2 %), Kegeyli (3,1 %) va Qorao'zak (2,9 %) tumanlar ulushiga tegishli.



**Tumanlar kesimida har 1000 oilaga to‘g‘ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni^{*}**
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




**Tumanlar kesimida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan
kichik korxona va mikrofirmalar soni^{**}**
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




* 2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha kengashlari ma‘lumotlari asosida jamlangan.

** Doimiy aholi soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko‘ra shakkantirilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni (2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni (2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlangan da ularning ulushi, Nukus shahrida (35,9 %), To'rtko'l (11,8 %), Beruniy (7,6 %), Amudaryo (6,6 %), Nukus (5,9 %), Xo'jayli (5,0 %), Q'ong'rot (4,9 %), Ellikqa'la (4,3 %), Chimboy (3,9 %), Qorao'zak (3,5 %), Mo'ynoq hamda Kegeyli (3,0 %), Taxiatosh (2,5 %), Qanliko'l va Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,2%) va Bo'zatov (1,3 %) tumanlar hissasiga tegishli.


Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar ,tumanlar kesimida taqsimlangan da Taxtako'pir (15,7 %), Amudaryo (11,7 %), Nukus,sh(11,0 %), To'rtko'l (10,8 %), Qanliko'l (9,2 %), Beruniy (12,1 %), Taxiatosh va Ellikqal'a (5,3 %), Xo'jayli (4,3 %), Qorao'zak va Nukus (2,9 %), Qo'ng'irot (3,0 %), Mo'ynoq (2,7 %), Shumanay (1,6 %), Chimboy (0,8 %), Kegeyli (0,6 %) va Bo'zatov (0,4 %) dan tumanlar ulushga ega.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020-yilning yanvar- sentabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiysaytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qо'ylgan.

Statistik registrlarni yuritish

bo'limi.

Tel.:61 224-92-09